

# **EKOLOGIK INQIROZ SHAROITIDA MO'YNOQ LANDSHAFTLARINING TABIIY-REKREATIONSALOHİYATI VA UNDA BARQAROR FOYDALANISH MASALALARI**

Kurbanbaeva N.A.

Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17804194>

## **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada Aralbo'yi mintaqasining eng muammoli hududlaridan biri bo'lgan Mo'ynoq tumani landshaftlarining hozirgi ekologik holati tahlil qilinadi. Ekologik inqiroz, tuproq sho'rlanishi, cho'llanish va bioxilma-xillikning kamayishi sharoitida hududning tabiiy-rekreatsioon salohiyati baholanadi. Shuningdek, ekologik xavf va rekreatsioon faoliyatning o'zaro muvofiqligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Mo'ynoq tumani, ekologik inqiroz, landshaft, rekreatsioon salohiyat, ekoturizm, cho'llanish, sho'rlanish, ekologik xavf.

## **KIRISH**

Tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatning buzilishi XXI asrning asosiy global muammolaridan biri hisoblanadi. Orol dengizi havzasida yuz bergan ekologik inqiroz natijasida yuz minglab gektar maydonlar cho'lga aylanishi, tuproqning kuchli sho'rlanishi va havo muhitining ifloslanishi kuzatildi. Mazkur jarayonlar ayniqsa Mo'ynoq tumani hududida keskin namoyon bo'lmoqda. Dengiz tubining qurishi natijasida yuz minglab gektar maydon ochilib, "Aralkum" nomli yangi ekologik xavfli hudud shakllandi. Natijada chang-to'zon bo'ronlari kuchaydi, tuproq sho'rlanishi oshdi, biologik xilma-xillik keskin kamaydi. Bu holat hududning tabiiy holatini jiddiy izdan chiqardi.

Bir paytlar baliqchilik va suv bilan bog'liq rekreatsioon hudud bo'lgan Mo'ynoq bugungi kunda ekologik xavf yuqori bo'lgan zona sifatida tan olinmoqda. Shunga qaramay, mintaqa o'ziga xos tabiiy-landshaft xususiyatlari, tarixiy va ekologik ahamiyati bilan muayyan rekreatsioon salohiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mavjud ekologik vaziyatni inobatga olgan holda hududning tabiiy-rekreatsioon imkoniyatlarini aniqlash hamda undan barqaror foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## **Tadqiqotning maqsadi**

Mo'ynoq tumani landshaftlarining ekologik inqiroz sharoitidagi hozirgi holatini baholash va ularning tabiiy-rekreatsioon salohiyatidan barqaror foydalanish imkoniyatlarini aniqlash.

## **ASOSIY QISM**

### **1. Mo'ynoq landshaftlarining ekologik holati**

Bugungi kunda Mo'ynoqda quyidagi asosiy landshaftlar mavjud:

|                                    |                                                                                                                                                                         |
|------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Qurigan dengiz tubi (Orolqum)      | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Sho'rxok va qumli tekisliklar</li> <li>• Tuz va qum aralash qatlamlar</li> <li>• Ekologik jihatdan eng xavfli hudud</li> </ul> |
| Cho'l va chala cho'l landshaftlari | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Sekerboy, qandim, yantoq kabi cho'l o'simliklari</li> <li>• Qurg'oqchil, o'ta kontinental iqlim</li> </ul>                     |

|                                         |                                                                                                                                                                                                                                                |
|-----------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Antropogen landshaftlar                 | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Tashlab ketilgan port va kemalar hududi</li> <li>• Qishloq va aholi punktlari atrofidagi buzilgan yerlar <ul style="list-style-type: none"> <li>• Sug'orish inshootlari izlari</li> </ul> </li> </ul> |
| Sun'iy ko'kalamzorlashtirilgan hududlar | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Saksovul, teresken, yulg'un kabi o'simliklar ekilayotgan zonaslar</li> <li>• Chang va tuzni to'xtatish uchun barpo etilmoqda</li> </ul>                                                               |

## 2. Iqlim va tabiiy sharoitlar

Hudud iqlimi keskin kontinental:

Yozda: +40...+45 °C

Qishda: -20...-25 °C gacha

Yillik yog'in: 80–100 mm atrofida

Shamollar kuchli, tez-tez chang va tuzli bo'ronlar kuzatiladi

Bu sharoit landshaftlarni yanada qaqshatadi va rekreatsion faoliyatni cheklaydi. Mo'ynoq tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, u Aral dengizining qurigan tubi bilan bevosita tutash hudud hisoblanadi. So'nggi 40–50 yil davomida suv resurslarining keskin kamayishi natijasida:

- tuproqda sho'rlanish darajasi oshgan;
- qum va tuz aralash chang bo'ronlari soni ko'paygan;
- o'simlik va hayvonot dunyosi keskin kamaygan;
- yerlarning degradatsiyasi kuchaygan.

Bu holat landshaftlarning tabiiy barqarorligini pasaytirib, hududda yashash sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq aynan mana shu inqiroz natijasida vujudga kelgan manzaralar, qurigan dengiz tubi, tashlab ketilgan kemalar, maxsus biohududlar kelajakda noyob ekorekreatsion yo'nalishlar uchun xizmat qilishi mumkin.

## 3. Tabiiy-rekreatsion salohiyat tushunchasi

Tabiiy-rekreatsion salohiyat – bu hududning inson salomatligi, dam olishi, turizm va sog'lomlashtirish ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tabiiy resurslar majmui hisoblanadi. U quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- geografik o'rin;
- iqlim sharoiti;
- landshaft xilma-xilligi;
- suv, qum, o'simlik resurslari;
- ekologik holat.

Mo'ynoq tumanida klassik kurort tipidagi rekreatsiya uchun sharoit cheklangan bo'lsa-da, ekstremal ekoturizm, ilmiy-ekologik ekskursiyalar, xotira turizmi va ijtimoiy-ekologik turizm uchun muayyan imkoniyatlar mavjud.

## 4. Ekologik xavf va rekreatsion faoliyat muvofiqligi

Agar rekreatsion faoliyat rejasiz amalga oshirilsa, u hududdagi ekologik muammolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun Mo'ynoq sharoitida quyidagi muvofiqlik tamoyillari muhim hisoblanadi:

- zarar yetkazmaydigan infratuzilma;
- chiqindisiz (zero waste) tamoyil;
- cheklangan tashrif buyuruvchilar soni;
- yashil texnologiyalar qo'llash.

Bu yondashuv "barqaror rivojlanish" konsepsiyasiga to'liq mos keladi.

#### AMALIY TAVSIYALAR

Bu mavzu bo'yicha avval ham bir qator ilim kishilari shug'ullangan bo'lib ularning ilmiy ishlari quyidagicha:

Nozima Zufarova „Orol dengizi merosi: ekologik fojiani barqaror ekoturizm imkoniyatlariga aylantirish“ maqolasi. U Orolbo'yi muammosini faqat ekologik fojia emas, balki barqaror turizm va iqtisodiy diversifikatsiya nuqtai nazaridan ko'rib, rekreatsion va ekoturistik salohiyatni rivojlantirish yo'llarini taklif qilgan.<sup>1</sup>

Shohida Samadova & Adxam Alisherovich Avliyaqulov „Orolbo'yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizining qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolar salbiy ta'sirini yumshatish“ maqolasi. Ular ekologik inqiroz, tuproqsho'rlanishi, iqlim va sog'liq muammolari bilan birga, tiklash va barqaror rivojlanish choralari — ya'ni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy yechimlarni ko'rsatgan.<sup>2</sup>

Zufarova va Samadova tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Mo'ynoq hududidagi ekologik muammolarni ochib bergan bo'lsa-da, ularni qo'llashda kompleks, integratsiyalashgan va barqaror rekreatsion model yo'qligi aniqlanadi. Ushbu ishda esa ekologik reabilitatsiya va rekreatsion salohiyatni yagona tizimda baholovchi model ishlab chiqilishi taklif etiladi.

Mo'ynoq tumanida tabiiy-rekreatsion salohiyatni ekologik xavfni oshirmagan holda rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinadi:

- Ekoturizm yo'nalishlarini tashkil etish
- Aral dengizining qurigan tubiga maxsus sayyohlik marshrutlari, kuzatuv platformalari yaratish.
- Yashil hududlar barpo etish
- Sho'rlangan yerlarda saksaul, qandim, yulg'un kabi o'simliklar ekish orqali "yashil belbog'" yaratish.
- Ekologik ta'lim markazlari ochish
- Talabalar va sayyohlar uchun ekologik seminar va treninglar tashkil etish.
- Mahalliy aholini jalb qilish
- Mahalliy aholiga gidlik, ekomahsulot tayyorlash, xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini yaratish.
- Monitoring va nazorat tizimini tashkil etish
- Tuproq, havo va biologik holatni uzluksiz nazorat qilish orqali ekologik muvozanatni saqlash.

#### XULOSA

<sup>1</sup> Yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

<sup>2</sup> Journal of new century innovations

Xulosa qilib aytganda, Mo'ynoq tumani ekologik inqiroz ta'sirida bo'lsa-da, hududni to'liq "foydasiz zona" deb baholash noto'g'ri. Aksincha, ilmiy asoslangan, ekologik xavflarni hisobga olgan holda rejalashtirilgan rekreatsion faoliyat nafaqat barqaror rivojlanishga, balki hudud aholisi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Demak, ekologik xavf sharoitida ham tabiiy-rekreatsion salohiyatdan oqilona foydalanish mumkin va zarur. Shu asosda Mo'ynoq hududida keng miqyosda fitomelioratsiya ishlarini davom ettirish, ekologik xavfi past bo'lgan hududlarda ekoturistik yo'nalishlarni shakllantirish, zamonaviy GIS va masofadan zondlash texnologiyalariga asoslangan doimiy monitoring tizimini joriy etish hamda mahalliy aholini bu jarayonlarga faol jalb etish zarur. Ana shunda Mo'ynoqning ekologik holatini yaxshilash barobarida uning tabiiy-rekreatsion salohiyatidan barqaror va samarali foydalanishga erishish mumkin bo'ladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Abdullayev, A. (2020). Moynaq va Aral dengizi hududidagi ekologik muammolar. Toshkent: Fan.
2. Ergashev, S. & Tursunov, R. (2021). Aral dengizi mintaqasida rekreatsion salohiyat va ekoturizm imkoniyatlari. Toshkent: O'zbekiston Turizm Instituti.
3. Karimov, J. (2019). O'zbekiston landshaftlarining tabiiy va rekreatsion resurslari. Toshkent: Fan va Texnologiya.
4. Nazarov, B. (2022). Ekologik inqiroz va landshaftlarni barqaror rivojlantirish yo'llari. Toshkent: Ilmiy Nashr.
5. Smith, J. (2020). Ecotourism and sustainable development in the Aral Sea region. Sustainability, 12(21), 9249.
6. Jones, P. & Ahmed, K. (2019). Tourism potential and landscape restoration in arid regions. Journal of Environmental Management, 250, 109-121.
7. Zufarova, D. & Samadova, M. (2021). Aral Sea ecological crisis: impacts on human and natural environment. Central Asian Environmental Review, 15(2), 45-60.
8. ResearchGate contributors. (2020). Eco-innovative mechanisms of tourism development in the Aral Sea region. Retrieved from <https://www.researchgate.net>